

Jizzax davlat pedagogika universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti Usmonjon Qosimov taqrizi ostida

Ismailova Ma'mura Ochilovna

Chirchiq davlat pedagogika universtiteti
O'zbek tili va adabiyoti magistranti
+99 554 92 64

ADABIY TA'LIM KLASTERINING NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy ta'lism klasteri haqida umumiy tushunchalar hamda ta'lism klasterining ta'lism muassasalarga kirib kelishi haqida ma'lumotlar o'rinn olgan. Maqolada adabiy ta'lism klasteri integratsiya bilan bog'liq ekan, ta'limgning hozirgi bosqichida adabiy ta'limgning integratsion shakllari ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: adabiy ta'lism klasteri, integratsiya, ta'lism tizimi, tadqiqot, strategiya.

Adabiy ta'lism hozirgi kunda murakkab davrni boshidan kechirmoqda. Ta'limgning mazmuni va shakli o'zgarmoqda, yangi o'quv dasturlarida adabiy ta'lism fanlarining mazmunini aks ettirishga yangicha yondashuvlar tatbiq etilmoqda, O'qitishning yangi yondashuviarida ta'lism oluvchini ta'lism jarayonining markaziga qo'yish va uning sifatli ta'lism olishi uchun barcha sharoitilarni yaratish an'anasi mavjud. Bu esa ta'limgning shaxsga yo'naltirilgan yondashuvi sifatida adabiy ta'lism jarayoniga ham bevosita daxldor hisoblanadi. Adabiy ta'limgning insonparvarlik tamoyiliga, milliy qadriyatlarni umuminsoniy madaniyat kontekstida jonlantirishga e'tibor kuchaymoqda.

Mutaxassislar tomonidan "ta'lism klasteri" tushunchasiga berilgan ta'riflardan kelib chiqib "adabiy ta'lism klasteri" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: muayyan ijtimoiy-geografik hududning sifatli adabiy ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida o'zaro aloqadagi teng huquqli ta'lism sub'ektlarining integratsiyasini ta'minlovchi mexanizm.

Adabiy ta'lism klasterining maqsadi muayyan ijtimoiy-geografik hududdagi adabiy ta'limga aloqador sub'ektlami yaxlit tizim sifatida tasarruf qilish, adabiy ta'limga integratsiyani ta'minlash, sub'ektlar faoliyatini umumiy maqsad va xususiy manfaat nuqtayi nazaridan muvofiqlashtirish hamda tadqiq qilishdan iborat. Adabiy ta'limga klaster yondashuvining kirib kelishi innovatsion faoliyat mexanizmlarini ishga tushiradi.¹

U adabiy ta'limgni muvofiqlashtirish, integratsiyalash, ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish va ta'limgning asosiy hamda yordamchi vositalarini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi. Demak, klaster yondashuvi adabiy ta'limga yaxlit tizim sifatida qarash, uning keng qamrovli tushuncha ekanligini e'tirof etish, uzoq muddatga mo'ljallangan strategik yo'naliш va faoliyatga nisbatan yangicha yondashuv kabi xususiyatlarga ega. Adabiy ta'lism klasteri integratsiya bilan bog'liq ekan, ta'limgning hozirgi bosqichida adabiy ta'limgning integratsion shakllari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin.

-ilmiy-tadqiqot integratsiyasi;

-ta'lism, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;

-ta'lism turlariaro integratsiya;

¹ Toshtemirova. S. Klaster yondashuvi asosida umumiy o'rta ta'lism muassasalarida ta'lism sifatini oshirish. 13.00.01. – pedagogika nazariyasi. pedagogik ta'lismotlar tarixi. pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertasiyasi avtoreferati

- aloqador fanlararo integratsiya;
- adabiy ta'lim bo'limlariaro integratsiya;
- mavzulararo integratsiya;
- mavzu doirasidagi integratsiya.

Ushbu integratsiya shakllari muayyan darajada shartli bo'lib, ular o'zaro birbiriga bog'liq va singish xususiyatiga ega. Masalan, ta'lim turlariaro integratsiya adabiy ta'lim bo'limlaridagi integratsiyani ta'minlash bilan qaror topadi, shuningdek, bo'limiararo integratsiya mavzulararo integratsiyaning qaror topishi bilan yuzaga keladi. Adabiy ta'lim bo'yicha olib borilayotgan dissertatsiyalarda tizimlilik va izchillikning ta'minlanishi integratsiya jarayonlariga ta'sir qiladi va yaratilayotgan ilmiy yangiliklarning soha mutaxassislari tomonidan muvaffaqiyatli qabul qilinishini ta'minlaydi. Ushbu keng qamrovli integratsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish esa adabiy ta'limning kiaster modeliga o'tish zaruratini nazariy jihatdan asoslaydi.

Umuman, adabiy ta'lim klasteri adabiy ta'limda integratsiyani ta'minlovchi mexanizm bo'lib, sifatli ta'lim va samaradorlikni ta'minlovich innovatsion yondashuv sanaladi. Bugungi kun adabiy ta'limida integratsiya muammosi dolzarb ekanligi esa ushbu modelni ta'lim amaliyotiga olib kirish zaruratini ilmiy nuqtayi nazaridan asoslaydi. Uning ilmiy-pedagogik asoslarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy jamoatchilik oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Pedagogik ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy jamiyatning barqaror rivojlanishidagi yuqori ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqqan holda zamonaviy talablar, tizimdagi muammolar va ularni hal qilishda fan va ta'lim tizimlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni ta'minlash uzlusiz pedagogik ta'limni innovatsion klaster rivojlanish tizimiga o'tkazish orqali ta'lim tizimini rivojlantirish lozim. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri uzlusiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarining bir butunligi bo'lib, ularning bирgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat samaradorligi natijasini yangi darajaga ko'tarish orqali yuqori sifatga erishish imkonini beradi.

Klasterning asosiy maqsadi o'z tarkibiga kiruvchi ta'limiy, ilmiy, innovatsion salohiyatni nafaqat yuqori fuqarolik va kasbiy layoqatlilik darajasi bilan, balki raqobatbardoshligi, yangiliklarni qabul qila olish qobiliyati, yangi ta'lim dastur va texnologiyalarini loyihalash hamda amalga oshira olish qobiliyatiga ega innovatsion ta'lim-tarbiya mutaxassislarini tayyorlashni amalda oshirishdir.

Pedagogik ta'lim-tarbiyani rivojlanishining klaster tizimi ta'lim berish, yangi o'quv adabiyotlarini yaratish, pedagog kadrlar ilmiy salohiyatini oshirish, ta'lim va tarbiya uzviyligi bilan bog'liq umumiy yo'nalishlarda faoliyat olib boradi. Ayni paytda bu umumiy yo'nalishlar ta'limni boshqarish va tashkillashtirish, ta'lim turlari va yo'nalishlari o'rtasida uzviylik va integratsiyani ta'minlash, o'qitish metodlari va vositalaridan foydalanish kabi yo'nalishlarda o'z aksini topadi. Quyidagilar klaster tizimining subyektlari sifatida ishtirok etadi:

–talabalar, magistrantlar, doktorantlar pedagogik amaliyot o'taydigan, ta'limiy, ilmiy tadqiqotchilik, innovatsion va loyihalashtirish faoliyatini olib boradigan o'quv va tajriba eksperimental baza vazifasini o'taydigan maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, oliy va qo'shma ta'lim muassasalari;

–ta'limning turli darajalaridagi yangilanishlarga muvofiq ravishda kattalarning qo'shma ta'lim tizimi muassasalari, bolalar va o'smirlarning maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi pedagogik kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish muassasalari;

–hamkorlikdagi ilmiy tadqiqot faoliyati bilan shug'ullanayotgan va uni belgilaydigan ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalar, markazlar, ilmiy tadqiqot institutlari;

–pedagogik hamjamiyatlar, tashabbuskor jamoalar, jamoat birlashmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari;– xorijiy oliy ta’lim muassasalari va ilmiy markazlar.

Klaster tizimi har biri alohida faoliyat olib boradigan subyektlarni umumiy maqsad atrofida birlashtiradi va ayni paytda har bir subyekt umumiy maqsaddan kelib chiqqan holda xususiy manfaatdorlik asosida ish yuritadi. Klaster tizimi subyektlari bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi va nazorat qiladi, har biri alohida klasterning ma’naviy va intellektual maydonini yaratadi, ijtimoiy ta’siri hamda ahamiyatini kengaytiradi. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri aloqadorlik, uzviylik, izchillik, zamonaviylik, yo‘naltirilganlik, o‘zaro hamkorlik, hamfikrlik, manfaatdorlik tamoyillariga asoslanadi.

Mushtarak qilib aytadigan bo‘lsam, ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchilarda kommunikativ, axborot bilan ishslash, o‘zini o‘zi rivojlantirish, ijtimoiyfaol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kabi tayanch bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari // pedagogika fanlari doktori diss.. – Chirchiq, 2020. - 270 b.
2. Botirova Sh.A. Adabiy ta’lim klasterining ilmiy pedagogik asoslari // pedagogika fanlari doktori diss.. – Chirchiq, 2021. - 265 b.
3. Sharipova G.N. Pedagogik ta’lim klasteri sharoitida talabalarda o‘zini o‘zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish // ped.fan.bo‘yicha.fals.doktori diss. – Chirchiq, 2020. - 180 b.
4. Toshtemirova. S.A. Ta’lim klasterlarini tashkil qilishda ijtimoiy buyurtmani belgilash zarurati // Ta’lim, fan va innovatsiya, 2021. № 4, 65-70 b.
5. Toshtemirova S.A. Bo‘lajak tarix o‘qituvchilarining pedagogik kasbiy kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar // Mug‘allim həm yzliksiz bilimlendirio‘, 2021. № 6, - B. 17-24